



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

---

**АГПИ**  
**Научный вестник**



ANDIJON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI

## ADPI Ilmiy xabarnomasi

**№ 2 2026** **aprel**

**Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda  
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan  
**ISSN 2181-4309**

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-  
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy  
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga  
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik  
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida  
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida  
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

**Murojaat uchun:**

**Telegram:** ADPIilmiyxabarnoma\_bot

**Electron manzil:** [eduservis@gmail.com](mailto:eduservis@gmail.com)

**2/2**

### **BOSH MUHARRIR:**

**B.M. Rasulov**- tarix fanlari doktori (DSc), professor

### **Mas'ul muharrir:**

**B.A. Sirojiddinov**- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

### **TAHRIR KENGASHI**

**S.Z. Zaynobiddinov**- O'zRFA akademigi

**I.R. Asqarov**- kimyo fanlari doktori, professor

**Sh.X. Yo'lchiyev**- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

**A.E. Zaynobiddinov**- biologiya fanlari doktori, professor

**B.X. Amanov**- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

**A.A. Egamberdiyev**- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**M.V. Xalimova**- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Sh.J. Yusupova** - pedagogika fanlari doktori, professor

**Z.E. Azimova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.B. Artiqova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**V.A. Qodirov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**N.J. Abdullayeva**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.A. Tojiboyeva** - filologiya fanlari doktori, professor

**Sh.A. Xaitov**- tarix fanlari doktori (DSc), professor

**A.G. G'aniyev**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.K. Pozilov** -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

**T.T. Kaziyeva**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**U.A. Usmanova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**D.T. Samatov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**A.Xakimov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**M.T.Parpiyev**- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**A.A. Zapparov**- texnika fanlari nomzodi, professor

**U.A. Saliyev**- tarix fanlari nomzodi, professor

**M.I. Israil**- filologiya fanlari doktori, professor

**L.A. Muxammadjonova**- falsafa fanlari nomzodi, professor

**Sh.A. Xasanov** - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**X.T. Komilova** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**M.Sh. Alimova** - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**Q. Ibaybullayev**- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**D.T. Samatov**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D'.M. Muxtarov**- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**S.N. Yusupova**- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**B.M. Do'monov**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**E.A. Tajimirzayev**- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**K.S. Karimov** - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**A.A. Yuldashyev**- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.J. Abduraxmonova** - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.M. Muydinova**- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**J.B. Qoraboyev**- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**N.T. Mo'yidinov**- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Sobirova**- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**E.B. Abdullayev**- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**G'.Sh. G'ulomov**- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**L.S. Yunusov** - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**N.S. Yaqubov**- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

**M.I. O'rinboyev**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**U.Sh. Uktamov** - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**M.G'. Ergasheva** - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

**Muharrirlar:**

**O. Karimov,**

**U. Malikova,**

**B. Mashrabova.**

# MUNDARIJA

## PEDAGOGIKA

<b>Artikova M.B., Turaboyeva M.R.</b> Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida .....	4
<b>Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q.</b> Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	9
<b>Hasanov Sh.A.</b> Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida .....	15
<b>Shabdullayeva L.O.</b> Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari .....	20
<b>Agzamova N.O.</b> Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri .....	30
<b>Matmusayev T.M.</b> Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi .....	35
<b>Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z.</b> Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi .....	42
<b>Alimov J.A., Shermuhammedov M.</b> Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish .....	47
<b>Axunov U.R.</b> Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash .....	51
<b>Shabdullayeva L.O.</b> Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari .....	55
<b>Karimova M.M.</b> Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni .....	62
<b>Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'.</b> Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari .....	67
<b>Hasanov Sh.A.</b> Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida .....	71
<b>Ismonov X.B., Azimjonova U.Z.</b> Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksonometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati .....	78
<b>Maxmudov A.O.</b> Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish .....	84
<b>Abduraxmonova D.Sh.</b> Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari .....	89
<b>Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U.</b> Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari .....	93
<b>Madaminova G.G.</b> Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari .....	100
<b>Mashrabova B.N.</b> Irony and hyperbole in the dialogue of abduljon: a stylistic analysis of cinematic language .....	106
<b>Nishonov N.A.</b> O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari .....	111
<b>Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L.</b> Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati .....	115
<b>Uraimov S.R., Xakimjonov M.X.</b> Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish .....	120
<b>Yoqubjonov N.G'.</b> Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish .....	126
<b>Jo'rayeva D.I.</b> Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi .....	130

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

<b>Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A.</b> Yangi O'zbekistonda sud huquq tizmidagi islohatlar .....	135
<b>Raximova Z.X.</b> Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida .....	142
<b>Uzaqova N.M.</b> Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari .....	149
<b>Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M.</b> Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash .....	153
<b>Mutallibjonov U.I.</b> Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni .....	157

## ANIQ VA TABIIY FANLAR

<b>Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A.</b> Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	162
<b>Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш.</b> Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий .....	169
<b>Umarov A.V.</b> Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari .....	173
<b>Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х.</b> Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты .....	179
<b>Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х.</b> Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты .....	183
<b>Mamadaliyev B.K.</b> Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish .....	187
<b>Jamoldinova D.A.</b> Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi .....	192
<b>Ablazova K.S.</b> Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi .....	196

UO'K: 821.512.133

## BADIIY ASAR TAHLILI KOMPETENSIYASI - FILOLOG TALABALARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK DRAYVERI SIFATIDA

*Hasanov Sharobiddin A'zamovich*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

### **Annotatsiya.**

*Ushbu maqolada badiiy asar tahlili kompetensiyasining uch qavatli struktur-funksional tuzilishi, uning ichki mexanizmlari, mazkur tuzilish faqat ob'ekt, metodologik asos va reflektiv boshqaruv bilan cheklanib qolmay, komponentlar bir-biri bilan rekursiv va o'zaro bog'langan tarzda faoliyat ko'rsatashi, kompetensiyaning integrativ va drayverlik funksiyasini ta'minlashi haqida so'z yuritilgan.*

### **Kalit so'zlar:**

*kompetensiya, kompetentlik, uch qavatli struktur-funksional tuzilish, mexanizm, metodologik asos, komponent, rekursiv, integrativ, drayver, adabiy ta'lim, semantic, qobiliyat, kognitiv, aksiologik, operatsional, reflektiv, kommunikativ, argument.*

### **Аннотация.**

*В данной статье рассматривается трёхуровневая структурно-функциональная организация компетенции анализа художественного произведения, её внутренние механизмы; обосновывается, что данная структура не ограничивается лишь объектом, методологической основой и рефлексивным управлением, а компоненты функционируют в рекурсивной и взаимосвязанной форме, обеспечивая интегративную и драйверную функцию компетенции.*

### **Ключевые слова:**

*компетенция, компетентность, трёхуровневая структурно-функциональная организация, механизм, методологическая основа, компонент, рекурсивный, интегративный, драйвер, литературное образование, семантика, способность, когнитивный, аксиологический, операциональный, рефлексивный, коммуникативный, аргумент.*

### **Abstract.**

*This article examines the three-layered structural-functional organisation of literary text analysis competence and its internal mechanisms. It is argued that this structure goes beyond the object, methodological foundation and reflective management, with components operating in a recursive and interrelated manner; thereby ensuring the integrative and driver function of the competence.*

### **Keywords:**

*competence, competency, three-layered structural-functional organisation, mechanism, methodological foundation, component, recursive, integrative, driver, literary education, semantic, ability, cognitive, axiological, operational, reflective, communicative, argument.*

Oliy ta'lim paradigmasida "kompetensiya" tushunchasining mazmuni so'nggi o'n yilliklar davomida jiddiy evolyusiya kechirdi: u bilim, ko'nikma va malakalarning oddiy yig'indisidan predmetga xos va metapredmet o'lchovlarni, motivatsion-qadriyatli va reflektiv komponentlarni o'zida birlashtirgan shaxsning majmuiy sifatlariga aylandi. Ushbu o'zgarishlar o'z mohiyatiga ko'ra kompetentli mutaxassis tayyorlash konsepsiyasida "nimani biladi?" degan savoldan "nimani qila oladi?", "nimaga qodir?", "qanday fikrlaydi?" kabi savollarga nazariy-amaliy javob berish tomon yuksaldi. Bu esa, o'z navbatida, oliy filologik ta'lim oldiga badiiy

asarni tahlil qila bilish kompetensiyasini markaziy, tizim yaratuvchi, ya'ni didaktik drayver vazifasini bajaruvchi kompetensiya sifatida qayta talqin etish zaruriyatini qo'yadi.

**Badiiy asar tahlili kompetensiyasining kategorial ta'rifi.** Ilmiy adabiyotlarda "badiiy asar tahlili" ko'pincha metodik usul, didaktik vosita yoki o'quv faoliyatining bir turi sifatida talqin qilinadi. Metodist olimlar Q.Yo'ldosh va M.Yo'ldosh "Badiiy tahlil asoslari" kitobida badiiy asar tahlilining ilk ildizlari haqida shunday qayd etadilar: "Badiiy asar tahlili juda qadim zamonlardan buyon fikr egalarning diqqatini tortib kelgan. Turli davrda yashagan, har xil maqom va darajadagi olimlar badiiy tahlilning mohiyati va unga xos xususiyatlarni tasniflab, ushbu tushunchaga ta'rif berishga urinib kelishgan. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur singari turkiy mutafakkirlarning asarlarida badiiy tahlilga islomiy-turkiy dunyoqarash asosida yondashuv namoyon bo'lgan" [1].

Mazkur qarashlardan anglashiladiki, badiiy asar tahlili ilk bosqichlardayoq matnni ko'pqatlamli ma'no tizimi sifatida idrok etish, uning zohiriy va botiniy mazmun qatlamlarini farqlash hamda interpretatsiya qilishga qaratilgan intellektual faoliyat turi sifatida shakllangan. Demak, badiiy tahlil nafaqat estetik baholash vositasi, balki inson tafakkurining ma'no yaratishga qaratilgan kognitiv amaliyoti sifatida ham namoyon bo'ladi.

D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheralievlar tomonidan yaratilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da badiiy tahlil tushunchasiga: "...adabiy asarning mazmun-mohiyatini idrok etish, uning yaxlit estetik hodisa sifatidagi mavjudligini turli aspektlarda o'rganib, o'ziga xosligini ochib berish va qimmatini belgilashga qaratilgan hissiy-intellektual faoliyat", - deb ta'rif beriladi [2].

B.To'xlievning uqtirishicha: "Tahlil asarni qismlarga ajratish hamda bu qismlarni yana yangidan yaxlit holda idrok etishni ham anglatadi... Tahlilning bosh maqsadi asarda aks etgan badiiy olam mohiyatini anglash, uning asl mazmunini to'g'ri va to'la idrok etishdan iborat" [3].

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, badiiy asar tahlili tadqiqot maqsadi va amalga oshirish xususiyatiga ko'ra turlicha mazmun-mohiyat kasb etadi. Jumladan, "Badiiy tahlil asoslari" kitobida badiiy asar tahlili funksional vazifasiga ko'ra ikki asosiy turga: ilmiy-filologik va o'quv-didaktik tahlilga ajratilgan.

Filologik tahlil adabiy hodisaga mutaxassis nuqtai nazaridan yondashishni taqozo etadi hamda asarning badiiylik darajasi, estetik ta'sirchanligi, obrazlilik tizimi va poetik jozibasini ta'minlagan omilarni aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy-estetik faoliyat hisoblanadi. O'quv-didaktik tahlil esa badiiy asarning hayotiy va estetik mazmunini anglash orqali o'quvchi yoki talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan jamoaviy estetik-pedagogik faoliyat turi sifatida izohlanadi.

Badiiy asar tahlili ko'pqirrali hissiy-intellektual faoliyat jarayoni bo'lib, u genetik, tipologik, funksional, falsafiy va psixologik kabi turlar orqali ham amalga oshiriladi. Genetik tahlil asarning yaratilish manbalari, ijtimoiy-tarixiy muhiti, adabiy an'ana va muallif dunyoqarashi bilan bog'liq omillar xususida bahs yuritsa, tipologik tahlil asardagi janriy-uslubiy xususiyatlar, obrazlar tizimi, syujet-kompozitsion qurilish hamda boshqa asarlar bilan o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashga qaratiladi.

Zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim paradigmasi nuqtai nazaridan qaralganda, badiiy asar tahlilini filolog talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilovchi malakaviy talab, intellektual qobiliyat, integrativ xususiyat sifatida baholash yuzaga keladi.

Birinchiidan, A.V.Xutorskoy kompetensiyani "bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va shaxs faoliyatida namoyon bo'ladigan tayyorlik va tajribaning ajralmas birligi" sifatida ta'riflagan. Ikkinchiidan, I.A.Zimnyayaning kompetensiyani "intellektual va shaxsiy jihatdan shartlangan, predmet sohasiga nisbatan ijtimoiy-kasbiy yashash va faoliyat ko'rsatish tajribasiga asoslangan",- deya tavsiflashi bizga badiiy asar tahlili kompetensiyasini kasbiy faoliyat natijasida rivojlanadigan, amaliy voqelanadigan qobiliyat tushunchasi tarzida talqin qilish asosini beradi.

Uchinchiidan, professor Q.Yo'ldoshevning: "...oliy o'quv yurtida saboq olayotgan yoki oliy filologik ma'lumotga ega bo'lib, o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, hatto, oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan filolog mutaxassislarining kattagina qismi badiiy asarni tahlil qilish borasida etarlicha malakaga ega emaslar. Badiiy asarni tahlil qila bilmaslik domladan talabaga, o'qituvchiga aylangan sobiq talabadan o'quvchiga, talabaga aylangan kechagi o'quvchidan yana talabaga tarzida uzilmas halqa bo'lib davom etib kelmoqda. Bu holni adabiyot o'qitish amaliyotining aybidan ham ko'ra fojiasi deyish to'g'riroq bo'ladi." degan xulosasi badiiy asar tahlilining kasbiy kompetentlik uchun zarur shart ekanini isbotlaydi.

Badiiy asar tahlili kompetensiyasi bu - filolog-mutaxassisning turli janr va tur xususiyatlaridagi badiiy matnlarni lingvopoetik, germeneytik, struktur- funksional va aksiologik yondashuvlar sintezi asosida kompleks tahlil qila olish, tahlil natijalarini ilmiy va pedagogik muloqotda dalillik ifoda eta olish hamda o'z-o'zini kognitiv nazorat qilish ostida reflektiv boshqara olish qobiliyatidir.

Ushbu ta'rif o'z ichiga kompetensiyaning uch muhim konseptual qatlamini qamrab oladi: birinchiidan, tahlil ob'ekti - badiiy matnning ko'pqirrali semantik va estetik tabiati; ikkinchiidan, faoliyatning metodologik asosi - turli ilmiy yondashuvlar sinteziga tayangan holda amalga oshiriladigan tahliliy strategiya; uchinchiidan esa, kompetensiyaning metasathi - tahlil jarayonini anglangan tarzda rejalashtirish, monitoring qilish va baholashga xizmat qiluvchi reflektiv boshqaruv mexanizmlaridir.

**Badiiy asar tahlili kompetensiyasining struktur-funksional modeli.** Badiiy asar tahlili kompetensiyasining uch qavatli struktur-funksional tuzilishi uning ichki mexanizmlarini ochib berishga imkon beradi. Mazkur tuzilish faqat ob'ekt, metodologik asos va reflektiv boshqaruv bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu kompetensiyaning samarali amalga oshirilishi uchun uning besh tarkibiy komponentini ham inobatga olish lozim. Bu komponentlar bir-biri bilan ierarxik tartibda emas, balki rekursiv va o'zaro bog'langan tarzda faoliyat ko'rsatadi, biri-birini shart qiladi, boyitadi va kompetensiyaning integrativ va drayverlik funksiyasini ta'minlaydi.

**Kognitiv komponent.** Kognitiv komponent tahlilchi-filologning matnni tushunish va dekodlash uchun zarur bo'lgan konseptual-terminologik bazasini tashkil etadi. Bu faqat atama va ta'riflarni bilishdan iborat emas. Bu - janr, uslub, poetik tizim to'g'risidagi bilimlarni konkret

matn xususiyatlari bilan jonli muloqotga kirishtirish, badiiy matnning lingvopoetik, narratologik, intertekstual va semiotik qatlamlarini bir vaqtda idrok eta olish qobiliyatidir.

Bizning tajriba-sinov ishlarimiz shuni ko'rsatdiki, filolog talabalarning ko'pchiligi adabiy terminologiyani asosan "test savollari uchun" yodlaydi, ammo uni aniq badiiy matn tahlilida samarali qo'llashda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Bu holat kognitiv komponentning shakllanmaganligidan emas, balki uning operatsionallashtirilmaganligidan dalolat beradi: nazariy tushunchalar bilan matn o'rtasida metodik ko'prik hali to'liq yaratilmagan.

**Operatsional-faoliyatli komponent.** Amaliy tahlil uzvi badiiy matn tahlil qilish metodologiyasini maqsadli tanlash va uni samarali qo'llash malakasini o'z ichiga oladi. Professor Q.Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, "...har qanday janrdagi asarni tahlillay olish malakasi" bu – faqat ko'p matn tahlil qilganlikning mexanik natijasi emas. Bu metodologik mobillikning ko'rsatkichi, turli janr, uslub, davrga mansub matnlar oldida tahlil usulini moslashtira olish, ya'ni janr-poetik idiomatikaga sezgirlikdir. Roman tahlilini oda tahlili kabi, doston tahlilini esa hikoya tahlili metodlari bilan o'tkazish – operatsional komponentning rivojlanmaganligini ko'rsatadigan tipik xatolardan biridir.

**Aksiologik komponent.** Aksiologik komponent badiiy asar tahlili kompetensiyasining qadriyatli yadrosini tashkil etadi. Bu komponent o'qituvchi-filologda va talabada badiiy asarga nisbatan shaxsiy ma'no, estetik idrok va gumanistik pozitsiyaning mavjudligini taqozo etadi. Pedagogika fanida aksiologik komponent asosan Yu.K.Babanskiy, B.T.Lixachyov, V.A.Slastyonin tadqiqotlarida yoritilgan. Ushbu komponent mavjud bo'lmasa, tahlil mexanik jarayonga aylanib, badiiy matnning ma'noviy chuqurligini ochib bera olmaydi.

**Refleksiv-baholovchi komponent.** Refleksiv komponent kompetensiyaning eng kamroq tadqiq etilgan, ammo g'oyat muhim jihatidir. U tahlilchining o'z interpretatsiyasini tanqidiy ko'za bilan ko'ra olishi va o'z-o'ziga: "Men bu xulosaga qanday dalilga tayanib keldim?", "Boshqa talqin mumkinmi?", "Men qaysi metodologik pozitsiyadan turib fikr yurityapman?" kabi savollarga javob bera olish layoqatidir. Bu L.S.Vigotskiy ta'biri bilan aytilganda, "tafakkur har doim muammoli vaziyatlarda harakatga keladi" degan fikrning kompetensiya sathida realizatsiya qilinishidir [4]. Refleksiv komponent tahlilchidan doimiy o'z-o'zini tekshirish va takomillashtirish rejimida ushlab turishni taqozo etadi.

**Kommunikativ-pedagogik komponent.** To'rtinchi komponent tahlil natijalarini ikki turdagi diskurs – akademik (ilmiy maqola, referat, tezis) hamda pedagogik (dars, ma'ruza, seminar) muhitda adekvat ifoda eta olish malakasini qamrab oladi. Ushbu komponent tarkiban ikki muhim subqobiliyatni birlashtiradi: birinchisi – transpozitsiya, ya'ni murakkab tahlil natijalarini muayyan auditoriya xususiyatlarini hisobga olgan holda tushunarli tilda qayta ifodalash; ikkinchisi – pedagogik modifikatsiya bo'lib, u o'zlashtirilgan tahliliy yondashuvlarni muayyan didaktik vaziyatga moslashtirishni nazarda tutadi.

**"Didaktik drayver" tushunchasi va uning asoslanishi.** "Didaktik drayver" tushunchasi mazkur tadqiqotda ilgari surilayotgan yangi ilmiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. U mazmun jihatidan "tayanch kompetensiya" va "integrativ kompetensiya" kabi tushunchalarga yaqin

bo'lsa-da, funksional vazifasiga ko'ra ulardan farqlanadi. Xususan, tayanch kompetensiya barcha sub'ektlar uchun umumiy bo'lgan va shaxsning jamiyatda samarali faoliyat yuritishi uchun zarur metasifat sifatida talqin etiladi (masalan, savodxonlik yoki raqamli kompetensiya). Integrativ kompetensiya esa turli kompetensiyalar elementlarini birlashtiruvchi sintetik tuzilma sifatida namoyon bo'ladi.

**Didaktik drayver funksiyasini asoslovchi argumentlar.** Olib borilgan nazariy tahlil hamda tajriba-sinov ishlarimiz natijalari ushbu kompetensiyaning didaktik drayver sifatida namoyon bo'lishini asoslovchi to'rtta asosiy argument mavjudligini ko'rsatdi.

**Birinchi argument:** tahlil kompetensiyasi – fanlarni integrativ birlashtiruvchi. Filolog talaba badiiy matn tahliliga kirishganda nafaqat adabiyot nazariyasi, asarning estetik qiymati, yozuvchi mahorati kabi aspektlarni o'rganadi, balki tarix, falsafa, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya sohasidagi bilimlarini ham o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi. Masalan, Cho'lponning “Kecha va kunduz” romani tahlili ustida ishlash jarayonida XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat – tarix, “eshon” fenomenining islom diniy madaniyatidagi o'rni – dinshunoslik, dialog sintaksisidagi tinish belgilar poetikasi – lingvistika, yozuvchi uslubi, mahorati – adabiyot nazariyasi kabi fanlar bir doirada birlashadi. Demak, tahlil kompetensiyasi predmetlararo bilimlar tarmog'ini faollashtiruvchi mexanizm – drayver vazifasini bajaradi.

**Ikkinchi argument:** tahlil kompetensiyasi – analitik tafakkurni uzluksiz mashq qildiruvchi intellekt ob'ekti. Analitik tafakkur yuritish jarayonida “axborotni belgilash, atroflicha o'rganish; axborotni muayyan qismlarga ajratish; ma'lumotlarni taqqoslab ular o'rtasidagi bog'liqlikni topish; axborotni xolis baholash; mantiqiy fikrlash” kabi aqliy operatsiyalar bajariladi. Badiiy asarni tahlil qilish jarayoni aynan ana shu operatsiyalarning barchasini bir vaqtda, yaxlit tarzda ishga tushiradi. Bu nuqtai nazardan, tahlil kompetensiyasi nafaqat natija, balki kasbiy tafakkurni tinimsiz rivojlantiruvchi jarayon, uni boshqaruvchi drayverdir.

**Uchinchi argument:** tahlil kompetensiyasining darajasi pedagogik kompetentlikni bevosita belgilaydi. Tajriba-sinov ishlarimiz shuni aniq ko'rsatdiki, badiiy matnni analitik tahlil qila oladigan filolog-talaba uni o'quvchilarga o'rgatishda ham sezilarli samaraga erishdi. Aksincha, tahlil kompetensiyasi zaif bo'lgan talaba pedagogik amaliyotda professor Q.Yo'ldoshev ta'kidlagan “Adabiyot o'qituvchisi nochorligicha, adabiyot darslari zerikarliligicha, asardan chiqariladigan xulosa 'ijtimoiy nasihat'ligicha qolaveradi” holatiga tushib qoladi. Demak, badiiy asar tahlili kompetensiyasi pedagogik kompetentlikning sifat indikatorini vazifasini o'taydi.

**To'rtinchi argument:** tahlil kompetensiyasi va ilmiy tadqiqotchilik salohiyati. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi filolog talabalarda ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasining markaziy yadrosi sifatida namoyon bo'ladi. Adabiy matnni analitik tahlil qilish jarayoni – kichik miqyosli tadqiqot sifatida amalga oshiriladi. Bu jarayonda talaba gipoteza qo'yadi, matndan dalillar izlaydi, ularni tasdiqlaydi yoki rad etadi, xulosalar chiqaradi va natijalarni mantiqiy asoslaydi

[5]. Shu tariqa, badiiy asar tahlili ilmiy tadqiqotning metodologik logikasi bilan izomorfik bog'liqlikni tashkil etadi.

**Badiiy asar tahlili kompetensiyasi didaktik drayver sifatini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar.** Olib borilgan nazariy tahlil hamda tajriba-sinov ishlarimiz natijalari asosida biz badiiy asar tahlili kompetensiyasini filolog talabalarning kasbiy kompetensiyalar tizimida didaktik drayver sifatida funksional ishga tushirishning besh pedagogik shart-sharoitini aniqladik.

**Birinchi shart: matn-markazli ta'lim muhitini shakllantirish.** Filologik ta'lim jarayonida dars, seminar va amaliy mashg'ulotlar kabi barcha o'quv formatlarida autentik badiiy matn tahliliy faoliyatning markaziy ob'ekti sifatida namoyon bo'lishi lozim. Ya'ni o'qituvchi badiiy asar tahlili to'g'risida ma'ruza qilish orqali passiv axborot uzatuvchi vazifasini bajarmaydi, balki talabalarning matn bilan mustaqil tahliliy muloqotga kirishishini ta'minlovchi didaktik jarayonni tashkil etuvchi fasilitator sifatida ishtirok etadi.

**Ikkinchi shart: talabalar tahlil faoliyatini bosqichma-bosqich pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini ta'minlash.** Talabalarda badiiy asar tahlili kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirish jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlashning tizimli mexanizmini yo'lga qo'yish muhim didaktik shartlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon L.S.Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" tamoyiliga tayanadi. Mazkur tamoyilga muvofiq, tahlil vazifalari talabaning mavjud intellektual imkoniyatlaridan bir qadam yuqori darajada belgilanishi, biroq pedagogik yo'naltirish va metodik qo'llab-quvvatlash orqali bajarilishi mumkin bo'lgan doirada tashkil etilishi lozim.

**Uchinchi shart: tahlil faoliyatida metakognitiv refleksiya uchun barqaror pedagogik muhitni shakllantirish.** Har bir tahlil mashg'ulotidan so'ng talabaning o'z bilish jarayoniga nisbatan ongli munosabatini ta'minlash maqsadida u "men nimani tahlil qildim?", "tahlilni qanday amalga oshirdim?" va "nima uchun aynan shu xulosaga keldim?" kabi savollar yuzasidan mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatilishi lozim. Amaliyotda mazkur jarayon refleksiv kundaliklar yuritish, o'zaro ekspert baholash, auditoriyaviy muhokamalar va tahliliy hisobotlar tayyorlash orqali tizimli ravishda yo'lga qo'yilishi mumkin.

**To'rtinchi shart: tahliliy faoliyat natijalarini transpozitsiya qilish imkoniyatlarini yaratish.** Psixodidaktik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sub'ekt o'zi mustaqil tahlil qilgan mazmunni boshqalarga tushuntirish, o'rgatish yoki muhokama qilish jarayonida mazkur faoliyatga oid kognitiv amaliyotlarni yanada chuqurroq anglaydi va interiorizatsiya qiladi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida "tahlil qil - o'rgat - refleksiya qil" didaktik siklini tizimli joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Beshinchi shart: baholash tizimini kompetensiya indikatorlariga moslashtirish.** Badiiy asar tahlili kompetensiyasini shakllantirish jarayonida an'anaviy "to'g'ri-noto'g'ri" tamoyiliga asoslangan reproduktiv baholash mezonlari etarli samara bermaydi [6]. Chunki badiiy matn tahlili yagona, qat'iy javobni emas, balki dalillangan, mantiqan asoslangan va matnga tayangan individual talqinni taqozo etadi. Shu bois tahliliy faoliyat natijalarini baholashda "fikr

dalillanganmi?”, “tahlil matnga asoslanganmi?”, “xulosalar mantiqiy izchillikka egami?”, “talqin mustaqil mulohaza mahsulimi yoki tayyor sxemaning takrorimi?” kabi kompetensiyaga yo‘naltirilgan indikatorlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, badiiy asar tahlili kompetensiyasi filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirishda tizim yaratuvchi didaktik omil vazifasini bajaradi. U badiiy matn mazmunini anglash bilan cheklanmay, talabalarining tahlil qilish, dalillash, muqobil nuqtai nazarlarni qiyoslash va mustaqil ilmiy xulosalar chiqarish kabi intellektual faoliyatini faollashtiradi hamda kognitiv, kommunikativ va tadqiqotchilik salohiyatlarini integratsiyalaydi.

Mazkur kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan matn-markazli ta‘lim muhiti, bosqichma-bosqich pedagogik qo‘llab-quvvatlash, metakognitiv refleksiya va kompetensiya indikatorlariga asoslangan baholash tizimi talabalarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Natijada ular badiiy matn bilan ishlash jarayonida gipoteza qo‘yish, dalillarni saralash va tahlil natijalarini mantiqiy asoslash kabi tadqiqotchilik ko‘nikmalarini egallaydi.

Demak, badiiy asar tahlili kompetensiyasi filologik ta‘lim tizimida talabaning kasbiy shakllanishini ta‘minlovchi didaktik drayver sifatida namoyon bo‘lib, uning rivojlanishi boshqa kasbiy kompetensiyalarning ham mutanosib takomillashuvini ta‘minlaydi. Ushbu kompetensiya nafaqat adabiyot ta‘limining tor chegaralarida, balki umumiy intellektual va kasbiy rivojlanish nuqtai nazaridan ham strategik va didaktik ahamiyatga ega pedagogik fenomen sifatida o‘rganishni davom ettirishni taqozo etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari.– T.:Kamalak,2016.– 148 b.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademyashr, 2013. – 52 b.
3. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – 51-52 b.
4. Хуторской А.В. Модель компетентностного образования // Научный журнал «Педагогика». Электрон манба: <https://cyberleninka.ru/article/n/model-kompetentnostnogo-obrazovaniya>
5. Лесохина А.М. Использование литературной сказки для извлечения лингвокультурологической информации // Ярославский педагогический вестник. – 2011. – №2, Т. II. – С. 190.
6. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика, 1991. – 150 с.

